

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTUI

"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori

O.SH.Bazarov

2022 yil

64

2022 yil

MAKROIQTISODIYOT
fanidan

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000	- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310 000	- Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'naliishi:	60310100	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul kodи	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar		
MAKROE6	2022-2023	4	6		
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari			
	Majburiy fan	O'zbek	5		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)		
	Makroiqtisodiyot	76	104		
2.		Jami yuklama (soat)			
1. Fanning mazmuni					
Iqtisodiyoda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rghanishda "Makroiqtisodiyot" fani muhim ahamiyat kasb etadi.					
Ta'liming asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaqqiyat qozonish uchun zarur va kerak bo'ladigan sifatlari ta'lim berish hisoblanisa, Makroiqtisodiyot fani hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.					
Fanni o'qitishdan maqsad - talabatlarda Makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.					
Fanning vazifalari - makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lishi shakkiali va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni klassik va neoklassik nazariyalar, fiskal va monetar siyosat instrumentlarini tartibga solishda multiplikatorlar samarasi, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish bususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy kontsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy o'sishga erishishni, mamlakut to'lov balansini mo'tadillahtirish usullarini o'rgatishdan iborat.					
Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:					
<ul style="list-style-type: none"> - makroiqtisodiy atamalar, kontsepsiya va nazariyalarini bilish va tushunishni o'rgatish; - makroiqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish; - makroiqtisodiy siyosatning ijobjiy va salbiy oqibatlarini baholay olishni; - makroiqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy kontseptsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish. 					
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)					

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: "Makroiqtisodiyot"ga kirish

"Makroiqtisodiyot"ning shakllanish tarixi, predmeti va ob'ekti, Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari, "Kene jadval". Iqtisodiyotga davlat arulashuvining zarurligi. Kene nazarlyasining mohiyati, Makroiqtisodiyot fanining shakllanishi.

Asosiy makroiqtisodiy muammolar. Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari sifatida. Makroiqtisodiyotning iqtisodiyot sohasidagi boshqi fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari, Aggregallashuning afzalliklari va kamchiliklari. Makroiqtisodiy modellar. Yopiq va ochiq iqtisodiyot. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar. Deiravly aylanish modeli, "Daromadlar-xarajatlar" va "resurslar-mahsulotlar" oqimi. Qarama-qurshi oqimlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi sabablari. Makroiqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqlari, maqsad va funksiyalari. "Oqimdan cheunga chiqish" va "chetdan oqimga qo'shilish"lar. Makroiqtisodiy siyosat ko'rinishlari.

2-mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Milliy iqtisodiyotni taxlit qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. Milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi sifatida Yalpi ichki mahsulot (YalM) ko'rsatkichining mohiyati. Iqtisodiy budud. Rezident. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. Bozor baholari. YalMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Qo'shilgan qlymat, bir qlymatni ikki bor hisobga olishni istisno etish. YalMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. Shaxsliy iste'mol xarajatlar. Yalpi investitsiyalar. Tovarlar va xizmatlarning davlat xaridi. Sof eksport. O'zbekiston Respublikasida YalMning ishlab chiqarish hamda yakuniy iste'molga ko'ra tarkibi. YalMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Boshlang'ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Yalpi milliy daromad. Sof ichki mahsulot. Sof milliy daromad. Shaxsliy daromad. Shaxsliy tasarrufdagi daromad. Iste'mol. Jamg'arish. Yalpi milliy tasarrufdagi daromad. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar. Daromsadlar va xarajatlar tengligi. Investitsiyalar va jamg'armalar tengligi. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Nominal va real YalM. Baholar indekslari. YalM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi. YalMni hisoblash usullarini takomillashtirish zaruriyati va yo'nalishlari.

3-mavzu. Iqtisodiy tebranishlar. Ishsizlik

Iqtisodiy davrlarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabublari: Ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Jahon bozorida energoresurslar narxlarining o'zgarishi, Tabiat hodisalar. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlarda o'zgarishlar. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tafsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta'siri. Iqtisodiy tebranishlarning hozirgi kundagi xususiyatlari. Moliaviy-iqtisodiy inqirozlar. Iqtisodiy tebranishlarga bozorlardagi monopol tuzilmalar, davlatning tartibga soluvchilik roli, ilmiy texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning baynalminalashuvni ta'siri.

Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. A.Piguning neoklassik konsepsiyasi. Real ish haqi, ishchi kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Majburiy ishsizlik. Bandliik multiplikatori. Ishsizlik turlari va ish bilan to'la bandlik. Ishsizlikning haqiqiy va tabbiy durajasi. Potensial va haqiqiy YalM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken konuni. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari. O'zbekiston Respublikasida yungi ish o'rinalar yaratish va abolining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatining xususiyatlari va yo'nalishlari.

4-mavzu. Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosat

Inflyatsiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyani miqdoran o'lchash. Narxlearning barqaror o'sishi sharoitida inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazarasi. Pul massasining ko'payishi. Pulning aylanish tezligi ortishi. Muhsulot ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi. Iqtisodiyotdag'i monopolizm darajasi. Davlat xarajatlari. Inflyatsion sofiq. Inflyatsiyuning sur'atlariga ko'ra turlari. Talab inflyatsiyasi: mohiyati va modeli. Inflyatsion kutish. Inflyatsiyaning kritik nuqtasi. Xarajatlar inflyatsiyasi: mohiyati va modeli. Firmular monopolizmi va kasaba uyushmalari monopolizmi. Xomashyo va energiya baholarining o'sishi. Talab va taklif inflyatsiyasining qo'shilishi modeli. Inflyatsion spiral. Ochiq va bosit turilgan inflyatsiya. Bozor mexanizmi deformatsiyasi. Bahol signallarining buzilishi. Kutilgan va kutilmagan inflyatsiya. Inflyatsiya va foiz stavkalari. Fisher samarusi. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari. Inflyatsiya va ishsizlik. Phillips egri chizig'i. Inflyatsiya sur'ati va ishsizlik darajasi o'rtaidagi optimal mutanosiblik. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning mohiyati, vositalari. "Karaxt qilib davolash" va gradualizm. Adaptatsiya siyosati. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning monetaristik yo'nalishi. Daromadlar va narxlarini tartibga solish siyosati. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari va antiinflyatsiya siyosati xususiyatlari.

5-mavzu. Yalpi talab - Yalpi taklif modeli

Yalpi talab tushunchasi, AD egri chizigi, Bahol omillari, Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasasi va import xardiplari samarasi. AD egri chizig'i traektoriyasi. Pulning miqdoriy nazarasi. Babsur darajasi va yalpi talab o'rtaidagi teskarli bog'iqlik. Bahodan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlaridagi, investitsiya xarajatlaridagi, davlat xarajatlaridagi va sof eksportdag'i o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslur bahosining o'zgarishi. Unumidorlikning o'zgarishi. Soliqlarning o'zgarishi. Yalpi taklifidagi o'zgarishlar. Yalpi taklifining klassik modeli. Nominal kattaliklarning o'zgaruvchanligi. Real kattaliklarning qat'yligi. AS egri chizig'inining vertikalligi. AS egri chizig'inining ishlab chiqarish omilluri va texnologiyalar ta'sirida siljishi. Yalpi taklifining keynscha modeli. Nominal kattaliklarning nisbatan qat'yligi. Real kattaliklarning nisbatan o'zgaruvchanligi. Yalpi talab ta'sirida yalpi taklif egri chizig'idagi siljishlar. Baholarning muvozanatlari darajasi. Ishlab chiqarishning muvozanatlari hajmi. Umumiyl muvozanat tushunchasi. Valrasning umumiyl muvozanat tenglamasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi. Talab shoklari.

Taklif shoklari. Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat xarajatlarining o'zgartirilishi.

6-mavzu. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya

Yalpi talab komponentlari orasida iste'molning o'mi. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qosun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufidagi daromad) va iste'mol o'rtaidagi o'zaro bog'iqlik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Iste'molga (APC) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS). Iste'molga (MPC) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. O'zbekiston Respublikasida iste'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari. Investitsiya tovarlariga talabning yalpi talabdag'i o'mi. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi. Tobin koefitsienti. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshqa omillar. Akselerator modeli. To'liq investitsiya funksiyasi. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqaroligini belgilovchi omillar. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

7-mavzu. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli

Klassik makroiqtisodiy muvozanat nazarasi tanqid. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazarasi. Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talub va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. "Investitsiya-jamg'arish" modeli. Investitsiyalash va jumg'arish rejalashtirilgich ekanligi. "Daromadlar - xarajatlar" modeli - Keyns xochi. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. Modeli tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi. Tovar moddigi zahiralarining rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Zahiralarining o'zgarishi. Avtonom xarajatlar dinamikasi va uning ta'sirida muvozanatni YalM hajmining o'zgarishi. Multiplikator samarasasi. Avtonom xarajatlarining multiplikatsiyasi mexanizmi. Iste'molga chegaraviy moyillik va multiplikatsiya samarasasi. Multiplikator formulasi. Retsession va inflyatsion uzilish.

8-mavzu. Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi. Byudjet-soliq siyosati

Davlat byudjetining mohiyuti, tarkibi va funksiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan taribga solish va rag'batlanirish. Fan-tehnika taraqqiyotini rag'batlanirish. Ijtimoiy siyosatni molivayiv ta'minlash. Pul mablag'larining markazlashgan fondlarini tashkil etish va foydalananilishi ustidan nazorat. Davlat byudjeti daromadi. Davlat nobyudjet jamg'armalari. Konsolidatsiyalashgan byudjet. Soliqlar. Soliqlarning turlari, funksiyalari. Davlat byudjeti daromadlarining soliqlar turlari bo'yicha tarkibi. Soliq siyosati. Soliqqa tortish mezonlari. Adolatlilik. Samaradorlilik. To'lovga qodirlilik. Soliq yuki. Laffer egri chizig'i. Chegaraviy soliq stavkasi. Davlat byudjeti xarajallari. Davlatning iqtisodiyotda ishtiroi darajasi. Vagner qonuni.

Ne'matlarni iste'mol qilish jarayonidagi tashqi samaralur. Ijobiy va salbiy samaralur. Byudjet taqchilligi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi.

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Ragbatlaniruvchi va chekllovchi fiskal siyosat. Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi. Soliq multiplikatori. Balanslashgan byudjet multiplikatori. Soliqlarni kamaytirilishi samarasasi va davlat xarajatlari oshirilishi samarasasi. Diskret fiskal siyosat. Davlat byudjeti taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transferlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Takchillikni moliyalash usullari. Taqchillikni monetlashtirish va Oliver-Tanzi samarasasi. Davlat obligatsiyalarini chiqarish va siqib chiqish sumarasasi. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

9-mavzu. Pul bozorida muvozanat

Pul tushunchasi va funksiyalari. Pul aggreagtari: M1, M2, M3, L, "kvazi pullar". Pulga talabga monetarcha yondoshuv. Fisher va Kembrij tenglumalari. Pulning aylanish tezligi. Baholar darajasi, real YalM hajmi va pulga talab. Pulga bo'lgan real talab. "Pul mublag'larining real zahirasi". Pulga talabning keynscha nazariyası - likvidlitikni afzal ko'rish nazariyası. Bitimlar uchun, ehtiyojkorlik shartiga ko'ra va mulk sifatida pulga (spekulativ) talab. Pulni suqlashning muqobil qiymati. Pulga spekulativ talab va qimmatli qog'ozlar daromadliligi darajasi o'tasidagi teskarri bog'liqlik. Pulga talab funksiyasi. Pulga talab egri chizig'i grafiki. Fisher samarasasi. Nominal foiz stavkasi va pulga talab. Pulga talabga portfelli yondoshuv. Aktivlar portfielining tarkibi, unda naqd pulning ulushi. Jamg'arilgan boylik hajmi va pulga talab. Pul taklifi. Naqd pullar va depozitlar. Tijorat banklari tomonidan "pul massasining yaratilishi". Kredit multiplikatsiyasi. Depozitlarni majburiy zahiralush normasi. Majburiy va orto'cha zahiralari. Bank multiplikatori. Pul taklifining qisqartirilgan modeli. Pulning depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishi, deponentlash koefitsienti. Pul bazasi. Pul multiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Markaziy Bank tomonidan pul taklifini nazorat qilish va tartibga solish vositalari. Baholar darajasi qayd qilingan va duromadlarning belgilangan darajasi sharoitida pul bozorida qisqa muddati muvozanat. Foiz stavkasi va pul massasining muvozanatli darajalari o'zgarishiga daromadlar darajasi va pul taklifi o'zgarishining ta'siri. Pulning likvidlitigi egri chizig'i (LM)-Xansen modeli. Keynscha pul siyosatining mohiyati. Likvidlitik tuzog'i. Likvidlitik tuzog'i sharoitida pul siyosatining samarasizligi. Pul bozorida uzoq muddati muvozanat.

10-mavzu. Pul-kredit siyosati

Bank tizimining tarkibi. Markaziy bank va tijorat banklarining funksiyalari. Banklarning asosiy operatsiyalari va bozor iqtisodiyotidagi roli. Pul-kredit siyosatining mohiyati, pirovard maqsadlari va oraliq mo'ljalilar. Majburiy zahira

normasi. Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi). Ochiq bozordagi operatsiyalar. Qayta sotib olish to'g'risida kelishuv (REPO). Qat'iy va yumshoq pul kredit siyosati. Pul kredit siyosatining ta'sirini ishlab chiqarish hajmiga yetkazish mexanizmi. Yetkazish mexanizmidagi buzilishlarning sabablari va oqibatlari. YalMning o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ko'zda tutilmagan salbiy samaralari. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari, siqib chiqarish samarasasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'naliishlari.

11-mavzu. IS-LM modelining shakllanishi va tadbiqi

Xiks-Xansen modelining mohiyati. Tovarlar va xizmatlar hamda pul bozoridagi muvozanatni umumlashtiruvchi model. Modelning tenglamlamasi va asosiy o'zgaruvchilari. Ekzogen va endogen o'zgaruvchilar. Empirik koefitsientlar. Tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i. IS egri chizig'ining daromadlar o'qiga nisbatan yotiqligi va tikligi. IS egri chizig'ining tenglamasi. IS egri chizig'ining surilishlarini belgilovchi omillar. Pul bozoridagi muvozanat. LM egri chizig'i. Egri chiziqning daromad o'qiga nisbatan yotiqligi va tikligi. LM egri chizig'ining tenglamasi. LM egri chizig'ining gorizontal, ko'tarilib boruvchi va vertikal kesimlarda multiplikator sumarasasi. Daromadlar, pulga talab va foiz stavkasi. LM egri chizig'ining algebrlik natijasi. LM egri chizig'i siljishlari. IS-LM modelidagi muvozanat. Tovar va pul bozoridagi muvozanat. Baholar darajasi pasayishi natijasida ikki bazar tizimida muvozanatning o'zgarishi. IS-LM modelida byudjet soliq siyosati. Davlat xarajatlari va soliq stavkalarining o'zgartirilishi. Siqib chiqarish samarasasi va byudjet soliq siyosati samaradorligi. IS-LM modelida pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining samaradorligi. Likvidlitik tuzog'i. Investitsiya tuzog'i. Baholar o'zgarishi sharoitida rag'batlaniruvchi fiskal va pul-kredit siyosati. Modelda qisqa muddati va uzoq muddati muvozanat.

12-mavzu. Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsiyi, neokeynscha va neoklassikk modellari

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, shamiyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarishning potensial hajmi dinamikasi. Iqtisodiy o'sishning o'chanishi, real YalM vu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YalM dinamikasi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Ekstensiv o'sishning resurs, texnologik va ekologik cheklolvleri. Iqtisodiy o'sishning taklif, talab va taqsimot omillari. Ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillari. Mehnat unumdarligini oshiruvchi omillar. Iqtisodiy o'sish modellarining mohiyati va shamiyati. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellarining o'ziga xos xususiyatlari, kapital chegaraviy unumdarligining doimiyligi, ishlab chiqarish omillarining substitut emasligi. Y.Dornar modeli. Investitsiyalar - talab omili. Akselerator prinsipi. Investitsiyalar-taklif omili. Talab tenglamasi. Taklif tenglamasi. Kapital unumdarligi. Multiplikator. Talab va taklif muvozanati tenglamasi. R.Xarrod modeli. Ishlab chiqarish va investitsiya bajmlari o'tasidagi bog'liqlik modeli. Haqiqiy, kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari. To'liq bandlik sharoitida borqaror o'sish formulasasi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish sur'atlari

va omillari.

Noklassiklar tomonidan iqtisodiy o'sishning keynscha nazariyasi tanqidi. Kapitalning chegaraviy unumdarligi va ishlab chiqarish omillari nisbatining o'zgarishi. Robert Solou modeli, modelda yalpi taklif funksiyasi. Cobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi. Mehnat va kapital hajmlari hamda unundorligi. Modelda yalpi talabning o'sishi. Kapital jamg'arish. Kapitalning chiqib ketishi. Mehnatning kapital bilan qurollanganligi durajisi. Jamg'arish normasi. Aboli sonining o'sishi. R.Solou modelida texnik taraqqiyot va kapital bilan qurollanganlikning burqaror darajasi. Jamg'arish normasi va E.Fel'sning "oltin qolda'si". Jamg'arish normasini o'zgartirish siyosati. Texnik taraqqiyotni rag'batlanirish. A.Lyuising iqtisodiy o'sish modeli. Agrar va sanoat sektori. Mehnat resurslarini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlash. Modelning qo'llanishi imkoniyatlari.

13-mavzu. Xalqaro savdo nazariyulari. Tashqi savdo siyosati

Xalqaro savdoning zarurligi va ko'rinishlari. Jahan iqtisodiyotida xalqaro savdo ko'lmlarining ortib borishi. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi. Mutlaq xarajatlardagi farq. Tashqi savdodan yutuq. D.Rikardonning nisbiy ustunlik nazariyasi. Turli tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'tasidagi nisbat. Ishlab chiqarish xarajatlari va o'rIN almashtirish xarajatlari doimiyligi sharllari. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziglari. To'liq ixtisoslashish. O'rIN almashtirish xarajatlarning ortib borishi. Qisman ixtisoslashishdan maksimal manfaat ko'rish. Xeksher-Olin nazariyasi. Ishlab chiqarishning ortiqcha va taqchil omillari. Mamlakatda va tashqi davlatlarda omillar o'tasidagi nisbat darajasi. "Leontev pardoksi (taajubii)". M.Porter nazariyasi. Raqobat ustunligini belgilovchi omillar. Jahan bozorida talab va taklif. Muvozanatlari baho. Manfaatlarning taqsimlanishi. Tashqi savdo siyosati: mohiyati va maqsadlari, usullari. Tarif va notarif usullari. Import tariflari. Tariflarning baholar darajasi, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ta'siri. Davlat ko'rgan yutuq. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Ta'riflarni yoqlovchi harnda ularga qarshi fikrlar. Yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandililik va davlat daromadlarining o'sishi. Dempingdan himoya. Resurslarni raqobatbardosh bo'lgan sohalarga yo'naltirish. "Optimal tarif". Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar. Tarifa nisbatan afzalliklari, karschiliklari va qo'llash muammolari. Eksportga bojxona bojlar: qo'llashdan kutilgan maqsadlar, aholi turmush darajasi, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariiga ta'siri. Eksportni "ixtiyoriy" cheklash: mohiyati va qo'llanishining iqtisodiy natijalari. Eksport subsidiyalarini va kompensatsiyalovchi import bojlar. Import kvotalar. Kvotalashning iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariiga ta'siri. Import litsenziyalarini taqsimlash usulublari. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Belgilovchi shart-sharoitlar va ustuvorliklar. Tashqi savdo dinamikasi, tovarlarga ko'ra tarkibi va diversifikatsiyalash.

14-mavzu. To'lov balansi. Valyuta kursi

To'lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari.

Iqtisodiy hudud, Rezident, ikki bor yozuv. Kredit. Debet. Operatsiyalar bahosi. Tashki savdo balansi. Joriy operatsiyalar balansi. Tovarlar eksporti va importi. Omildan olingen daromadlar, eksportiga va importiga o'xshash operatsiyalar. Sof joriy transferlar. Joriy operatsiyalar balansi qoldig'i va uni makroiqtisodiy tartibga solish. Kapital xarakati va mollyavli operatsiyalar balansi. Sof xorijiy investitsiyalar va kreditlar. Aktivlarni sotish va sotib olish. To'lov balansi tarkibiy qismllari o'rtasidagi aloqadorlik. Ichki va tashqi balans. To'lov balansi tahsil. To'lov balansi taqchilligi. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish. Markaziy Bankning rasmiy valyuta zahiralari bilan operatsiyalari. To'lov balansi inqirozi va undan chiqish. Almashinuv kursining o'zgartirilishi. Valyuta bozori. Valyuta ayriboshlash zaruruti. Chet el valyutasiga talab. Chet el valyutasi taklif etish. Chet el valyutasiga talab va uni taklif etishning kichik mamlakat modeli. Valyuta bozorida muvozanatning kichik mamlakat modeli. Valyuta kursi. To'g'ri, bilvosita va teskarli kotirovka. Egiluvchan va qayd etilgan valyuta kursi. Valyutaning qadrsizlanishi va qimmatlashishi. Devalvatsiya va revalvatsiya. Nominal valyuta kursi. Real va real samarali valyuta kurslari. Xarid qobiliyatni poriteti. Nominal va real valyuta kurslarining uzoq muddatli dinamikasi. Valyuta kursiga ta'sir etuvechi omillar: foiz stavkalarining o'zgartirilishi, ishlab chiqarishning real hajmlari, inflyatsiya, xukumat siyosati, savdo balansi, joriy operatsiyalar balansi. Muvozanatlari valyuta kursi. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatlari valyuta kursiga ta'siri.

15-mavzu. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat. Mandell-Fleming modeli

Ochiq iqtisodiyotda muvozanatlari ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish hajmi. Ichki xarajatlari va savdo balansi. Sof eksport. Ichki xarajatlari va milliy ishlab chiqarish hajmi. Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri. Eksport va import o'rtasidagi bog'iliklik. Sof eksport va muvozanatlari ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyot uchun Keys xochi. Mandell-Flemningning ochiq iqtisodiyot modeli. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati. Qayd qilingan valyuta kursi va kapitalning yuqori mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat. Fiskal siyosatning sumaraliligi. Devalvatsiyaning ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Kapitalning past mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida iqtisodiy siyosat.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Makroiqtisodiyot" ga kirish
2. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
3. Iqtisodiy tebranishlar. Isbyszilik
4. Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosat
5. Yalpi talab - yalpi taklif modeli
6. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya
7. Keysning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli
8. Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi. Byudjet-soliq siyosati.

- Pul bozorida muvozanat
- Pul-kredit siyosati
- IS-LM modelining shakllanishi va tadbigi
- Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha va neoklassik modellari
- Xalqaro savdo nazariyalari. Tashqi savdo siyosati
- To'lov balansi. Valyuta kursi
- Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat. Mandell-Fleming modeli

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmlari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'limi va mustaqil ishlari

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.
- Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari
- Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.
- O'zbekiston Respublikasining YAM tarkibidagi o'zgarishlar tahlili.
- O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rnlari yaratishdagi roli.
- Inflyatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari.
- Inflyatsiyaga qarshi siyosat.
- Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini.
- Iste'mol vu jumg'arish funksiyalar.
- Ratsional kutish nazariysi.
- Investitsiya funksiyasi va omillari.
- O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati.
- Yalpi talab- yalpi taklif modeli.
- Yalpi talab va yalpi taklifni rag'bantirish yo'llari.
- Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli.
- Pul bozorida muvozanat.
- Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli.
- O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari.
- Davlat byudjeti turkibi va uni takomillashtirish yo'llari.

- Byudjet -soliq siyosati.
- O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati.
- Byudjet takchiligi.
- Pul-kredit siyosati.
- O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati.
- Pul-kredit siyosati va ulardan foydalananish amaliyoti tahlili.
- IS-LM modelida byudjet-soliq va pul-kredit siyosati.
- Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari.
- Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellari.
- Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.
- Zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari.
- Tashqi savdo siyosati.
- O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati.
- To'lov balansi.
- O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi.
- Valyuta kursi.
- O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati.
- Kichik ochiq iqtisodiyot modeli.
- Ochiq iqtisodiyotda byudjet-soliq siyosati.
- Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati.
- Tashqi savdo tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiyalash yo'llari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdirmot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Kurs ishi farrin mavzulariga taalluqli massalalar yuzasidan talabalarga yurka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda funga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun tahminiy mavzular:

- Makroiqtisodiyotning fun sifatida shakllanishi va rivojlanishi
- Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.
- Iqtisodiy tizimda xufya iqtisodiyotning o'rni va funksiyalari.
- Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari.
- O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.
- O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari.
- Inflyatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari,

8. Inflyutsiyaga qarshi siyosat.
9. Inflyutsiya jarayonlari tahlili.
10. Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini.
11. Iste'mol va jumg'anish funksiyalari.
12. Ra'sional kutish nazarlyasi.
13. Investitsiya funksiyasi va omillari.
14. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati.
15. Yalpi talab - yalpi taklif modeli.
16. Yalpi talab + yalpi taklif modeli vositasida jahon moliyaviy-iqtisodiy incirozi tublili.
17. Yalpi talab va yalpi taklifni rag'batlanirish yo'llari.
18. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli.
19. Pulga talab.
20. Pul taklifi.
21. Pul bozorida muvozanat.
22. Pul sektorida berqarorlik omillari.
23. Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli.
24. Soliq yoki va uning o'zgarishi oqibatlari.
25. Davlat byudjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari.
26. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning zamonaviy tendesiyalari va ularni O'zbekistonda qo'llanilishi imkoniyatlari.
27. Byudjet soliq siyosati.
28. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati.
29. Byudjet-soliq sektori va uning tarkibi
30. Byudjet taqchilligi.
31. Davlat byudjeti profitsitining negativ oqibatlari.
32. Pul-kredit siyosati.
33. O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati.
34. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.
35. Inflyatsiyani targetlash siyosati.
36. IS-LM modeli.
37. IS-LM modelida byudjet - soliq va pul-kredit siyosati.
38. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari.
39. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellari.
40. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.
41. Zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari.
42. O'zbekistonda barqaror o'sishni ta'minlashning omillari va yo'llari.
43. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharojtlarini shakllantirish

44. O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlashtirishning xususiyatlari.
45. Xalqaro savdo nazarlyysi.
46. Tashqi savdo siyosati.
47. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati.
48. O'zbekiston Respublikasining butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi masalalari.
49. M.Porter ustubiyatiga ko'ra O'zbekistonning raqobat ustunliklari.
50. O'zbekistonning eksport salohiyati va uning tavsifi.
51. To'lov balansi.
52. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatining to'lov balansiga ta'siri.
53. O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi.
54. Valyuta kursi.
55. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati.
56. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli.
57. Ochiq iqtisodiyotda byudjet-soliq siyosati.
58. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati.
59. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat.
60. IS-LM-BR modeli va byudjet-soliq va davlatning pul-kredit siyosati xarakterini aniqlash.

- 3. V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar**
Talaba bilishi kerak
- "Makroiqtisodiyot" fanini o'zlashtirish jarayonida bukalavr quyidagilar bo'yicha nazarli bilinga ega bo'lishi kerak:
- makroiqtisodiyot fanining predmetini, asosiy kategoriylarini va tadqiqot usullarini;
 - makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyatini va ularni hisoblash shartlarini;
 - asosiy makroiqtisodiy modellarni va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirishni;
 - tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmining mohiyatini haqida tasavvurga ega bo'lishi;
 - pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillarni;
 - budjet-soliq va pul - kredit siyosatining maqsadlarini, vositalarini, ko'rinishlarini;
 - iqtisodiy o'sishning mohiyatini, o'chanishini, omillarini va modellarini, tushqi sado siyosatining nazarly asoslarini va vositalarini;
 - mamlakat to'lov balansining tuzilishini, makroiqtisodiy ahamiyatini va uni tartibga solish usullarini;

	<ul style="list-style-type: none"> - valyuta kursining mobiyatini, makroiqtisodiy ahuniyatini, uni belgilovchi omillarni va barqarorligini ta'minlash shartlarini, ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash; - asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalurini tuzish; - tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish; - pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlarini; - makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlarni aniqlash; - turli makroiqtisodiy vaziyatlarda budget-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda o'zaro muvoqiqashitish shartlarini tushuntirib berish; - tashqi saydo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orgali to'lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tafsiflab berish; - ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo'llash; - makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish; - makroiqtisodiy siyosatning ijobji va salbiy oqibatlariga baho berish; - makroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil</p>

	<p>natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 9th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2016. 2. Abel A.B., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8th edition. USA: Amazon, 2013. 3. David Romer, Advanced Macroeconomics, McGrawhill, 2019.-800 c. 4. Самуэлсон, Пол Э., Нордхаус, Вильям Д. Макроэкономика. Учебное пособие. М.: ООО "И.Д.Вильямс", 2009. -592 с. 5. Екатериновская, Орусова: Макроэкономика. Деловые игры, кейсы, кроссворды. Учебное пособие. М.: Кнорус, 2021г. 6. Миронопольского Д.Ю., Бродский Т.Г., Макроэкономика. Учебник для вузов. -СПб.: Питер, 2018. – 368 с. 7. Носова С. Макроэкономика. Учебник. – М.: Кнорус, 2014, -468 с. 8. Золотарчук В.В. Макроэкономика: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2015, - 537 с. 9. Гусейнов Р.М., Семенихина В.А. Макроэкономика. Учебное пособие. – М.: 2014. -254 с. 10.Иннасенко А.Г., Никонова Я.И. Макроэкономика. Учебное пособие – Москва.: КноРус, 2016, – 314 с. 11. Djumayev Z.A., Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T."Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2018 yil-306 b. <p>Qo'shimcha adabiyetlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 12.Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'llini qat'iy davom ettiramiz", Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. 06.11.2021 (https://president.uz/oz/lists/view/4743). 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020. (https://president.uz/oz/lists/view/4057). 14.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasи. 2017 yil 16 yanvar, №11. 15.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 16.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b 17.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

- 18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-soni
"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar
strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, www.lex.uz.
- 19.G.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A.Djumaev, L.F.Amirov, H.A.Hakimov.
Makroiqtisodiyot. Darslik. T.: IQTISODIYOT, 2019
- 20.B.T.Salimov, M.T.Asqarova, I.A.Yakubov, M.S.Yusupov, H.A.Hakimov,
G.T.Yuldashev. Mikroiqtisodiyot.Makroiqtisodiyot. Darslik. T.:
IQTISODIYOT, 2019.
- 21.Марыганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс курс.:
учебное пособие- М.: КНОРУС, 2010.-302 с.
- 22.Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика; Учебник для вузов.
СПб.: Питер, 2009.-350 с.
- 23.Агалова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Учебник. М.: "Дело и
Сервис", 2005.-464 с.

Axborot manbalari

24. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
25. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjalari ma'lumotlari milliy
bazasi.
26. www.mineconomy.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va
kambag'allikni qisqartirish vazirligi sayti.
27. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
28. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
29. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti

7 Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va
tasdiqlangan. Fan dasturi Iqtisodiyot fakulteti (bayonnomma № 11, 24.06.2022 yil)
hamda institut Kengashlarida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil "28"
iyundagi №11- sonli bayonnomma).

8 Fan / Modul uchun mas'ul
O.Dj.Xusainov - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizehilar:

- A.B.Qurbanov -QarMII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi
dotsenti
- A.N.Raximov -QarMII, "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi
mudiri, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd).